

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

ASHUROVA LOLA NORBOYEVNA

***SAPONARIA OFFICINALIS, S. GRIFFITHIANA VA DIPSACUS AZUREUS*
O‘SIMLIKLARINI KIMYOVIY TAHLIL QILISH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTOR (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Ashurova Lola Norboyevna <i>Saponaria officinalis, S. griffithiana va Dipsacus azureus</i> o‘simliklarini kimyoviy tahlil qilish.....	5
Ашурова Лола Норбоевна Химический анализ растений <i>Saponaria officinalis, S. griffithiana</i> и <i>Dipsacus azureus</i>	21
Ashurova Lola Norboyevna Chemical analysis of the plants <i>Saponaria officinalis, S. griffithiana,</i> and <i>Dipsacus azureus</i>	41
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	45

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

ASHUROVA LOLA NORBOYEVNA

***SAPONARIA OFFICINALIS, S. GRIFFITHIANA VA DIPSACUS AZUREUS*
O‘SIMLIKLARINI KIMYOVIY TAHLIL QILISH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa dokrori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2025.2.PhD/K82 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) (uzicps.uz) va «Ziyonet» axborot- ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ramazonov Nurmurod Sheraliyevich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdulladjanova Nodira Gulomjonovna
kimyo fanlari doktori, professor

Nishanbayev Sabir Zaripbayevich
kimyo fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Samarqand Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T/104/01 raqamli Imiy kengashning 2025 yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100170, Toshkent., Mirzo Ulug‘bek ko‘ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail: plant-inst@icps.org.uz, ixrv@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘simlik moddalari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent 100170, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail: nhidirova@yandex.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh. Sh. Sagdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., akademik

N.K. Xidirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotib k.f.n., kat.i.x.

E.X. Botirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida dorivor o‘simliklardan biologik faol moddalarni ajratib olish va ularni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O‘simlik xom ashyosidan olingan biologik faol moddalar sintetik dori vositalariga nisbatan inson organizmiga zararli ta‘siri kamligi, allergiya chaqirmasligi va eng muhimi tabiiyligi uchun xalq tabobatida va tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi dorivor o‘simliklarga boy mintaqalardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida yaratib berilgan keng imkoniyatlar, farmasevtika sanoatini rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi. Jahonda raqobat tobora kuchayib borayotgan sharoitda mahalliy istiqbolli dorivor o‘simliklar asosida import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan arzon, sifatli dori vositalar yaratish hamda sanoat miqyosida ishlab chiqarishga joriy qilish borasidagi ishlar ko‘lami kengaydi. Shunga ko‘ra, tabiiy dorivor vositalar manbai bo‘lgan yangi o‘simlik turlarini izlash, ulardan biologik faol birikmalarni ajratib olish, tuzilishini o‘rganish, fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash, fiziologik faol yangi moddalarni topish va ular asosida samarali dori vositalar yaratish zamonaviy bioorganik kimyo, farmasevtika va tibbiyot oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O‘zbekiston florasida o‘simlik turlariga boy bo‘lib, 4300 dan ortiq turni qamrab olgan hamda ularning 20% ni endemik turlar tashkil qiladi. Shulardan 100 ta turi amaliy tibbiyotda, 600 dan ortiq turlari xalq tabobatida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ulardan qadimdan turli kasalliklarni davolash va oldini olishda, jumladan, keng tarqalgan va xavfli yurak qon-tomir, oshqozon-ichak, teri va turli etiologiyadagi boshqa kasalliklar, hatto zararli o‘simtalarni davolashda ham foydalaniladi.

Ayniqsa, triterpen va steroid glikozidlar (saponinlar) asosida olingan dori vositalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘simlik xom ashyosining glikozidlari asosida yaratilgan bir qator samarali dori vositalari amaliy tibbiyotda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bu dori vositalari organizmda yurak qon-tomir sistemasini mustahkamlashi, immunitetni kuchaytirishi, bakteriyalarga qarshi, antigipoksik, antioksidant xossalarga, viruslarga, yallig‘lanishga va xavfli o‘smalarga qarshi faollikka ega bo‘lgani, organizmga oson singishi va salbiy ta‘sirlari juda kam bo‘lganligi sababli, qator kasalliklarni davolashda tibbiyot amaliyotida keng ko‘lamda ishlatilib kelinmoqda. Shu tufayli *Saponaria* va *Dipsacus* turkumiga mansub o‘simliklardan tabiiy yangi metabolitlarni ajratib olish, ularning kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlash dori vositalarini yaratish hamda tibbiyotga joriy etish muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. 2018 yil 14-fevraldagi PQ-3532-son “Farmasevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2019 yil 10-apreldagi PF-5707-son “2019-2021-yillarda Respublikaning farmasevtika tarmog‘ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. *Saponaria* turkumiga mansub o'simlik turlarining ikkilamchi metabolitlarining kimyoviy tuzilishini tadqiq qilish, farmakologik xossalarini aniqlash va ular asosida yangi samarali dori vositalarni yaratish bo'yicha bir qator xorijiy yetakchi olimlar, jumladan V.Ya. Chirva, B.G. Buxarov, K. Koike, Z. Jia, T. Nikaido, T. Kubota, M.S. Barbara, W. Smulek, G.B. Endonova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular tomonidan *Saponaria* turkumiga mansub bir nechta o'simliklarning kimyoviy tarkibi tahlil qilish natijasida ulardan 50 dan ortiq kimyoviy birikmalar ajratib olingan.

Dipsacus turkum o'simliklari esa asosan saponinlarga boy bo'lib, ular asosida yangi samarali dorivor vositalarni yaratish bo'yicha bir qator xorijiy yetakchi olimlar, jumladan Yu J.H., Tao Y., Hung T.M., Mukamedzhev M.M., Alimbayeva P. K., Jumaliyeva N.J., Junusova M.A lar tadqiqotlar olib borishgan. Ular tomonidan *Dipsacus* turkumiga mansub 20 ga yaqin o'simliklarning kimyoviy tarkibi tahlil qilingan va 100 dan ortiq metabolitlar ajratib olingan.

Respublikamizda mazkur yo'nalishda akad. S.Y. Yunusov, M.B. Gorovis, N.K. Abubakirov, N.Sh. Ramazonov, J.M Putiyeva, H.M. Kamilov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. *Dipsacus* turkum o'simliklardan nomlari zikr etilgan olimlar tomonidan yangi va ma'lum tuzilishdagi birlamchi va ikkilamchi metabolitlar ajratilib, ularning kimyoviy tuzilishlari ilmiy isbotlangan va biologik faolliklari o'rganilgan.

Saponaria (dunyo bo'yicha tarqalgan jami 40 turdan 6 ta turi mamlakatimizda o'sadi) va *Dipsacus* o'simlik turlarining (dunyo bo'yicha tarqalgan jami 20 turdan 2 ta turi mamlakatimizda o'sadi) *S. officinalis*, *S. griffithiana* va *D. azureus* turlardan yangi va samarali biologik faol moddalarni ajratib olish dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanganligi, ushbu mavzuni tadqiqot ob'yekti sifatida tanlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti PZ-20170927342 raqamli "*Phlomoidea* va *Phlomis* turkum o'simliklari iridoidlari asosida antitoksik ta'sirga ega vositani ishlab chiqish" (2018-2020 yy) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida, shuningdek, O'zR FA akademik S.Y. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti, Glikozidlar kimyosi laboratoriyasida (2020-2024 yy) oralig'ida fundamental ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston florasida o'suvchi *Saponaria officinalis*, *Saponaria griffithiana* va *Dipsacus azureus* turkum o'simliklari metabolitlarini ajratib olish, ularning kimyoviy tuzilishlari hamda biologik faolliklarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Saponaria officinalis, *Saponaria griffithiana* va *Dipsacus azureus* o'simlik turlari xom ashyolarini turli organik erituvchilar yordamida ekstraksiya qilish va fraksiyalarga ajratish;

ajratilgan turli fraksiyalardan xromatografik va boshqa usullar yordamida sof holdagi birikmalarni ajratib olish;

sof holda ajratib olingan metabolitlarning molekulyar va fazoviy tuzilishlarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida isbotlash;

o'simlik efir moylari komponentlari tarkibidagi uchuvchan birikmalarni GX-MS usulida aniqlash hamda biologik faolliklarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekistonda o'suvchi *Saponaria* turkumi *S. officinalis*, *S. griffithiana* va *Dipsacus* turkumiga mansub *D. azureus* o'simlik turlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Yuqorida nomlari keltirilgan o'simlik turlaridan ajratib

olingan metabolitlarning kimyoviy tuzilishlarini fizik-kimyoviy xossalari hamda biologik faolliklarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida ekstraksiya, xromatografik (yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX), va spektroskopik-ultrabinafsha (UB), infraqizil (IQ), gaz xromatografiya-mass-spektrometriya (GX-MS), yuqori aniqlikdagi mass spektrometriya (HR-MS), 1 va 2 o'lchamli yadro magnit rezonansi spektroskopiyasi (1D va 2D YaMR) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba *Saponaria* va *Dipsacus* turkumlariga mansub *S. officinalis* *S. griffithiana* hamda *D. azureus* o'simliklarining kimyoviy tarkibi o'rganilib, uning natijasida jami 12 ta metabolitlar ajratilgan va identifikatsiya qilinib, tuzilishlari aniqlangan;

Saponaria officinalis o'simligidan saponinlar sinfiga mansub, – 3 β ,16 α -digidroksi-23-okso-oleanan-28,13 β -olid va vitasteroidlar sinfiga mansub 5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid yangi moddalar ajratib olingan, ularning tuzilishlari fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida isbotlangan;

ilk bor *S. officinalis* o'simligi yer ustki qismidan yangi moddalar bilan bir qatorda 4 ta birikma grasillin, 5 α -gidroksilaksogenin, hederagenin, pinitollar identifikatsiya qilingan;

birinchi marotaba *S. officinalis* va *S. griffithiana* o'simliklari efir moylari komponentlari tarkibi tadqiq qilinib, ular tarkibida mos ravishda 38 va 32 ta birikmalar identifikatsiya qilingan hamda efir moylari tarkibida ilk bor 1-(2-furil) etanol mavjudligi aniqlangan;

farmakologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, *D. azureus* o'simligi yer ustki qismi saponinlari yig'indisi yuqori gipoglikemik va gipoxolisterinemik ta'sirga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Saponaria officinalis o'simligidan ajratilgan saponin va vitasteroid yangi tabiiy birikmalar bo'lib, ularning kimyoviy tuzilishi to'liq isbotlangan;

tayyorlangan va chop etilgan "Сапонины" monografiyasi, *Saponaria* va *Dipsacus* turkum o'simliklarining kimyoviy tarkibi, biologik faolliklari hamda qo'llanilishi to'g'risidagi 6 bobli ma'lumotlardan yosh olimlar va tadqiqotchilarga qo'llanma sifatida foydalanishga tavsiya etilgan.

biologik tadqiqotlar *Saponaria officinalis* va *Saponaria griffithiana* o'simliklari kelgusida antioksidant va gastroprotektor ta'sirga ega dori vositalarini yaratishda istiqbolli o'simlik xom ashyolari ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ajratib olingan moddalarning tuzilishini tadqiq qilishda zamonaviy xromatografik, fizik-kimyoviy (UB, IQ, ^1H , ^{13}C YaMR spektroskopiyalari) tadqiqot usullaridan foydalanganligi bilan tasdiqlanadi. Natijalarning haqqoniyligi va ishonchliligi ularning respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokamadan o'tganligi, tadqiqot natijalarini taqriz qilinuvchi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilk bor O'zbekiston hududida o'suvchi *S. officinalis*, *S. griffithiana* va *D. azureus* o'simligining yer ustki qismidan triterpen va steroid saponinlar, vitasteroidlar, flavonoidlar iridoidlar va efir moylari ajratib olinganligi; yangi saponin va vitasteroidlarning kimyoviy tuzilishini va biologik faolliklarini aniqlanganligi bilan izohlanadi bu esa bioorganik kimyo, fitokimyo va farmasevtika sohalarida saponin, vitasteroid, iridoid, flavonoid va efir moylarini o'rganishda, o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, *S. officinalis*, *S. griffithiana* va *D. azureus* o‘simlik turlarini kimyoviy va biologik o‘rganish natijasida ular tarkibidagi ajratib olingan flavonoid, saponarin birinchi marta gastroprotektor, antioksidant va yangi tuzilishdagi moddalar bakteriya va zamburug‘larga qarshi, *D. azureus* o‘simligi tarkibidagi ekstraktlar gipoglikemik va gipoxolesterinemik faolliklari bilan izohlanadi. Olingan ushbu natijalar kelgusida dori vositalari va biologik faol qo‘shimchalar yaratish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Saponaria* va *Dipsacus* turkumlariga mansub o‘simliklarni kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

S. officinalis o‘simligidan ajratib olingan yangi sapolid va $5\beta,6\beta$ -epoksi- $20\alpha,24\beta,25\alpha$ -trigidrosi-1,3-diokso-2-yenolid birikmalarining kimyoviy tuzilishlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari aniqlangan. Natijada yangi birikmalarga o‘xshash moddalarning tuzilishi va xususiyatlarini tavsiflash imkonini bergan.

O‘simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № F-FA-2021-496 raqamli «Tabiiy birikmalar va ularning sintetik hosilalaridan maqsadli molekulyar yo‘naltirilgan sitostatiklar ishlab chiqish» fundamental loyihasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda *Saponaria* turkum o‘simliklaridan ajratib olingan bir qator moddalar bakteriya va zamburug‘larga qarshi faolligi aniqlangan. Bunda, mazkur o‘simlik birikmalari *Staphylococcus aureus* va *Bacillus subtilis* gram-musbat bakteriyalarning o‘shini ingibirlashi aniqlangan (O‘zR Fanlar akademiyasining 2024 yilning 8-iyuldagi № 4/1255-1544-son ma’lumotnomasi). Natijada *Saponaria* turkum o‘simliklaridan *Staphylococcus aureus* va *Bacillus subtilis* turdagi mikroorganizmlarga qarshi faollikka ega bo‘lgan birikmalarni topish imkonini yaratilgan.

Saponaria va *Dipsacus* turkumlari o‘simliklarning kimyoviy tarkibi va biologik faolliklarini tadbiq qilish natijalaridan xorijiy olimlar tomonidan bir nechta impakt faktori yuqori jumalarda Jurnal of Drug Delivery Science and Technology <https://doi.org/10.1016/j.jddst.2024.105382>, 2024, **IF-4,5**; Natural Product Research <https://doi.org/10.1080/14786419.2024.2358525>, 2024, **IF-1,9**; Ximiya rastitelnogo sirya, [doi.10.14258/jcprm.20240112489](https://doi.org/10.14258/jcprm.20240112489), 2024, **IF-0,77**; Chemistry of Natural Compounds, doi.org/10.1007/s10600-022-03679-w, 2022, **IF-0,83**; chop etilgan ilmiy ishlarda o‘simliklardan ajratib olingan ikkilamchi metabolitlarni kimyoviy va miqdoriy jihatdan tavsiflashda, shuningdek mikroob, zamburug‘larga qarshi, sitotoksik faolliklarni tavsiflashda foydalanilgan. Natijalar *Saponaria* va *Dipsacus* turkum o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari to‘g‘risida ma’lumotlar olish imkonini bergan:

Saponinlar kimyosi, biologik faolliklari hamda qo‘llanilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 6 bobli “Сапонины” nomli hammaulliflikda monografiya chop etilgan. Ushbu monografiya mahalliy universitet hamda institutlarda keng qo‘llanilib, yosh olimlar va tadqiqotchilarga saponinlar to‘g‘risida ma’lumotlar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta jumladan 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan 1 ta monografiya va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ning kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, jumladan, 3 tasi xalqaro va 6 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning ob'ekt va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Saponaria* va *Dipsacus* turkum o'simliklarining tabiatda tarqalishi, xalq tabobati va tibbiyotda qo'llanilishi, kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari**" deb nomlangan **birinchi bobida** *Saponaria* va *Dipsacus* turkumlari bo'yicha adabiyotlar sharhi keltirilgan. *Saponaria* va *Dipsacus* turkumi o'simliklarining botanik tavsiflari, tabiatda tarqalishi, etnofarmakologiyasi, xalq tabobatida qo'llanilishi, ajratib olingan tabiiy birikmalari va biologik faolliklariga oid adabiyot ma'lumotlari batafsil yoritib berilgan.


Dissertatsiyaning "**Tadqiqot natijalarining muhokamasi**" deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot natijalari taqdim etilgan va muhokama qilingan. Birinchi bo'limda o'rganilgan o'simliklar to'g'risida qisqacha ma'lumot, ikkinchi bo'limda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari, shuningdek, *Saponaria* va *Dipsacus* turkumlariga mansub 3 tur o'simliklaridan ajratib olingan metabolitlar ro'yxati, ularni ajratib olish, yangi moddalarning kimyoviy tuzilishini va xossalarini aniqlash usullari, farmakologik xususiyatlari to'liq bayon etilgan. O'simliklar tarkibidagi metabolitlarni ajratib olish maqsadida maydalangan o'simlik xom ashyosi metanol bilan xona haroratida 5 marta ekstraksiya qilindi va rotorli bug'latgich yordamida quyultirildi. O'simlik yer ustki qismining quyultirilgan ekstrakti 1:1 nisbatda distillangan suv bilan suyultirilgandan so'ng ajratgich voronkasida xlorofildan tozalash maqsadida xloroform bilan bir necha marta qayta ekstraksiya qilindi. Shu usulda tozalangan spirt-suvli ekstrakt n-butanol yordamida fraksiyaga ajratildi. Qutbliligi yuqori bo'lgan moddalar o'tgan n-butanolli fraksiya quritilib, silikagel adsorbentida kolonkali xromatografiya (KX) qilindi va individual holdagi moddalar ajratib olindi.

***Saponaria officinalis* o'simligidan ajratib olingan birikmalar**

S. officinalis va *D. azureus* o'simliklaridan individual holda ajratib olingan moddalarning kimyoviy tuzilishlarini aniqlash uchun bajarilgan YaMR spektroskopik tahlillar va ularning muhokamasi "Fizikaviy tadqiqot usullari" laboratoriyasi xodimlari bilan hamkorlikda olib borildi.

Saponaria officinalis o'simligini kimyoviy tadqiq qilish natijasida n-butanolli fraksiyasidan yangi tuzilishga ega birikmalar: saponin – 3 β ,16 α -digidroksi-23-okso-oleanan-28,13 β -olid ya'ni sapolid (**1**) hamda yangi tuzilishga ega vitanolid – 5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid (**2**) moddalari va shu bilan bir

qatorida 3 ta ma'lum saponinlar: 1-grasillin (3), 2-5 α -gidroksilaksogenin (apogenin) (4) 3-hederagenin (5), D-pinitol (6) ajratib olingan (1-rasm) (1-jadval). Saponarindan (7) tashqari barcha moddalar *S. officinalis* dan birinchi marta ajratildi va kimyoviy tuzilishlari IQ, UB, 1D va 2D YaMR spektr ma'lumotlariga ko'ra tasdiqlandi.



1-Rasm. *Saponaria officinalis* o'simligidan ajratib olingan moddalarning kimyoviy tuzilishlari

1- Jadval


***Saponaria officinalis* L. o'simligidan ajratilgan birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari**

№	Modda nomi	Brutto formulasi, mg	Suyuq. h., °C	Unum., %
1	Sapolid (1)	C ₃₀ H ₄₆ O ₃ (20 mg)	300-302	0.002
2	5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid (2)	C ₂₈ H ₃₈ O ₈ (40 mg)	185-187	0.004
3	Grasillin (3)	C ₂₇ H ₄₂ O ₅ (20 mg)	247-249	0.002
4	5 α -gidroksilaksogenin (4)	C ₄₅ H ₇₂ O ₁₇ (11 mg)	275-276	0.0011
5	Hederagenin (5)	C ₃₀ H ₄₈ O ₄ (16 mg)	330-332	0.0016
6	D-pinitol (6)	C ₇ H ₁₄ O ₆ (1 gr)	185-187	0.1
7	Saponarin (7)	C ₂₇ H ₃₀ O ₁₅ (2gr)	228-230	0.2

Yangi saponin 3 β ,16 α -digidrokso-23-okso-oleanan-28,13 β -olidning (1) kimyoviy tuzilishini aniqlash

S. officinalis o'simligining yer ustki qismini suv-spirтли ekstraktining n-butanolli fraksiyasidan oq kukun ko'rinishdagi s.h. 300-302 °C bo'lgan yangi saponin 3 β ,16 α -digidrokso-23-okso-oleanan-28,13 β -olid (1) ajratib olindi. Ushbu moddaning brutto formulasi C₃₀H₄₆O₅ m/z 487.5345 ekanligini HR-ESI-MS usuli yordamida aniqlanganda (nazariy hisoblangan massa 487.3345) [M+H]⁺ ioniga tegishli bo'lgan molekulyar ion tasdiqlaydi.

Molekulaning 1D va 2D YaMR spektrlaridan kelib chiqib, **1**-moddaning tuzilishi aniqlandi. ^1H YaMR spektrining kuchli qutblangan maydonida oltita metil guruhlarining (δ_{H} 0.87 (Me-29), 0.90 (Me-30), 0.94 (Me-25), 0.98 (Me-24), 1.10 (Me-26) va 1.39 (Me-27)) singlet signallari kuzatildi, shuningdek multiplet signallarning ustma-ust tushishi oleanol tipidagi saponinlar uchun xarakterli belgi hisoblanadi. Spektrning o'rtta qutbli qismida dublet-dublet ko'rinishidagi uchta proton signallari kuzatildi (δ_{H} 2.85, H -18; 3.59, H -16 va 3.72, H-3). Spektrning aromatik sohasida singlet ko'rinishidagi bitta protonga tegishli signal (δ_{H} 9.27 (H-23)) kuzatildi va bu aldegid guruhidagi proton ekanligi aniqlandi (2-rasm).



2-Rasm. $3\beta,16\alpha$ -digidroksi-23-okso-oleanan-28,13 β -olidning (1) ^1H YaMR spektri

Ushbu moddaning ^{13}C YaMR va HSQC spektrlari tahlil qilinganda 30 ta rezonans signallar kuzatildi, bular: 6 ta metil guruhleri, 10 ta metilen guruhleri, 6 ta metin va karbonil guruhi uglerodini o'z ichiga olgan 8 ta to'rtlamchi uglerodga xos signallar. ^{13}C YaMR spektrining kuchsiz sohasida δ_{C} 207.93 m.u.da (C-23) aldegid guruhi va δ_{C} 180.11 (C-28) m.u. da murakkab efir karbonil guruhi uglerodiga xos signal nomoyon bo'ldi. δ_{C} 92.42 m.u. da kislorod atomi bilan bog'langan to'rtlamchi uglerod signalining mavjudligi molekulada C-13 va C-17 karbonil uglerod o'rtasida efir ko'prigi mavjudligini ko'rsatdi. Spektrning kuchliroq maydonida kislorod bilan bog'langan uglerod atomlariga xos δ_{C} 72.58 (C -3) va 69,82 (C -16) bo'lgan metin guruhlarining ikkita signali kuzatildi. Bundan tashqari spektrda saponinning alifatik va metil guruhi uglerodiga xos 25 ta signal mavjud. Ushbu ma'lumotlardan **1**-modda molekulasida qo'shbog' tutmagan oleanol tipidagi pentasiklik triterpenoid deb xulosa qilish mumkin (2-jadval).

Oltita metil guruhining molekulada joylashuvi HMBC spektridagi H va C atomlari orasidagi kross cho‘qqilar yordamida aniqlandi. Aldegid guruhining joyi H-23/C-24, H-3/C-23, H-24/C-23 va C-4 kross-cho‘qqilari yordamida aniqlandi. Bundan tashqari HMBC spektrida H -3/C-1, C-2, C-4, C-23, C-24 va H-16/ C-14, C -17, C-18, C-22 holatlarda kross-cho‘qqilar kuzatildi. Bu esa gidroksil guruhlari C-3 va C-16 uglerodlarda joylashganligidan dalolat beradi.

2-Jadval


3 β ,16 α -digidroksi-23-okso-oleanan-28,13 β -olid (1) ning ^1H va ^{13}C YaMR spektrida kimyoviy siljish qiymatlari (600 MGts, δ , m.u., J, Gts).

C	δ_c	δ_H	C	δ_c	δ_H
1	39.64	1.07, m 1.81, m	16	69.82	3.59, dd (4.9, 1.2)
2	26.91	1.68, m	17	54.23	
3	72.58	3.72, dd (8.5, 7.9)	18	39.48	2.85, dd (12.5, 5.3)
4	56.57		19	37.03	0.88, m 1.32, m
5	48.50	1.27, m	20	30.56	
6	21.12	0.87, m 1.55, m	21	36.25	1.04, m 1.26, m
7	34.90	1.22, m 1.57, m	22	23.59	1.63, m 1.91, m
8	42.71		23	207.93	9.27, k. s
9	50.13	1.43, m	24	9.26	0.98, s
10	36.75		25	17.02	0.94, s
11	19.20	1.57, m	26	18.28	1.10, s
12	28.38	1.68, m 1.85, m	27	21.51	1.39, s
13	92.42		28	180.11	
14	44.82		29	23.23	0.87, s
15	35.04	1.41, m 1.86, m	30	33.61	0.90, s

Bir va ikki o‘lchamli YaMR spektrlari ma’lumotlaridan 1-modda tabiiy holdagi saponin-3 β ,16 α -digidroksi-23-okso-oleanan-28,13 β -olid ekanligi aniqlandi va tuzilishi tasdiqlandi.

Yangi vitanolid 5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid (2) ning kimyoviy tuzilishini aniqlash

S. officinalis o‘simligining yer ustki qismini suv-spirtli ekstraktining n-butanolli fraksiyasidan suyuq. h. 185-187°C bo‘lgan yangi sariq kristall holdagi vitanolid 5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid (2) ajratib olindi. Ushbu moddaning brutto formulasi C₂₈H₃₈O₈, ekanligini HR-ESI-MS spektrdagi m/z 502.2674 (nazariy hisoblangan massasi 502.2567) li [M+H]⁺ ioniga tegishli bo‘lgan molekulyar ion orqali tasdiqlandi (3-rasm).



3-Rasm. 5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid (2)ning HR-ESI-MS spektri

UB spektrda vitanolidlar hosilalari uchun xarakterli bo'lgan λ_{\max} 200, 224, 250 nm, IQ spektrda gidroksil guruhlar uchun xarakterli bo'lgan (3523 cm^{-1}), CH_2 -guruhlar uchun (2971 cm^{-1}), lakton halqasidagi karbonil guruhi uchun (1741 cm^{-1}), karbonil guruhi uchun (1687 cm^{-1}) va C-O guruhi uchun (1078 cm^{-1}) dagi yutilish chiziqlari mavjud.

2-moddaning PMR spektrida kuchli maydonda metil guruhlar uchun xarakterli bo'lgan oltita singlet signallari δ_{H} : 0.68 (H-18), 1.16 (H-21), 1.23 (H-27), 1.26 (H-19), va 1.28 (H-28), shuningdek 0.95 – 1.75 m.u. oraliq'ida ergostan skeleti bo'lgan vitanolidlarga xos bo'lgan, bir-birini yopib qolgan multiplet signallari mavjud. PMR spektrini o'rganishni davom ettirish natijasida geminal protonlarning to'rtta signallari 1.92 (H-11e), 2.01 (H-7e), 2.11 (H-23a) va 2.49 (H-23b), H-6 uchun tegishli SSTD ($J=2.6 \text{ Gs}$) 3.28 m.u. bo'lgan dublet signali hamda H-22 proton uchun xarakterli bo'lgan 4.58 m.u. da kengaygan singlet shaklidagi, shuningdek 5.91 m.u. da 25-OH gidroksil guruhining singlet ko'rinishidagi signallari aniqlandi. Spektrning aromatik maydonida 6.88 m.u. (H-2 va H-3) da qo'sh bog' uchun bitta ikki protonli singlet shaklidagi signal mavjud.

^{13}C YaMR spektri ma'lumotlarini o'rganish natijasida 5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid (2) tuzilishi aniqlandi. Spektrda 28 ta, jumladan 5 ta metil, 6 ta metilen, 8 ta metin va to'rtta karbonil uglerod atomlari bilan birgalikda 9 ta to'rtlamchi rezonans signallarining mavjudligi kuzatildi. ^{13}C YaMR spektrning kuchsiz maydonida 201.19 m.u. (C-1) va 192.93 m.u. da (C-4) ikkita keton guruhlar, 173.82 m.u. da (C-26) bitta murakkab efir karbonil guruhi, shuningdek 138.94 m.u. (C-2) va 141.08 m.u. da (C-3) olefin bog'laridagi ikkita uglerod atomlari uchun xos bo'lgan signallar kuzatildi. Spektrning kuchliroq maydonida kislorod bilan birikgan uglerod atomlariga xos bo'lgan 4 ta signallar (C-20) 87.38, (C-22) 82.73, (C-24) 80.83 va (C-25) 76.37 m.u. sohalarda kuzatiladi. Spektrda (C-5) 63.25 m.u. va (C-6) 62.66 m.u. dagi 2 ta uglerod signallarining kimyoviy siljish qiymatlari molekulada epoksid guruhning mavjudligidan darak

beradi. Molekulaning qolgan uglerod atomi signallari spektrning kuchli maydon qismida namoyon bo‘ldi (3-jadval).

Funksional guruhlarining joylari HMBS tahlil ma’lumotlari asosida o‘rnatildi. HMBS spektrida H-19/C-1, C-5, C-9, H-10; H-2/C-4, C-10; H-3/C-1, C-5; H-6/C-4, C-5, C-7, C-8 cho‘qqilari kuzatiladi va bu ma’lumotlar keton guruhlarini C-1 va C-4 da, qo‘sh bog‘ C-2 va C-3 da, epoksid guruh C-5 va C-6 da, C-10 uglerod atomida esa metil guruhi joylashganligidan darak beradi. Molekuladagi qolgan metil guruhlarining joylashuvi tegishli HMBS cho‘qqilari asosida C-13, C-20, C-24 va C-25 uglerod atomlariga mos ravishda aniqlandi. H-22/C-20, C-24, C-26 uglerod atomlari o‘rtasidagi HMBS korrelyatsiyasi murakkab efir guruhi molekulaning C-22 va C-26 uglerod atomlarining oralig‘ida joylashganligini ko‘rsatadi.

3-Jadval


5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid (2) ning ^1H va ^{13}C YaMR spektrida kimyoviy siljish qiymatlari (600 MGts, δ , m.u., J, Gts)

C	δ_C	δ_H	C	δ_C	δ_H
1	201.19	6.88, k.s.	16	22.66	1.67, m
2	138.94	6.88, k.s.	17	54.03	1.58, m
3	141.08		18	14.14	0.68, s
4	192.93		19	18.56	1.26, s
5	63.25	3.28, d (2.6)	20	87.38	
6	62.66	3.28, d (2.6)	21	22.74	1.16, s
7	29.56	1.42, m 2.01, k.d. (12.4)	22	82.73	4.58, k.s.
8	28.68	1.43, m	23	36.42	2.11, k.d. (13.2) 2.49, k.d. 13.2)
9	42.68	1.43, m	24	80.83	
10	48.82		25	76.37	
11	22.38	1.33, m 1.92, k.u. (11.9)	26	173.82	
12	38.88	1.34, m 1.72, m	27	19.33	1.23, s
13	40.95		28	18.46	1.28, s
14	54.85	1.00, m	25-OH	-	5.91, k. s
15	23.40	1.10, m 1.67, m			

Bir va ikki o‘lchamli YaMR spektrlari ma’lumotlaridan 2-modda tabiiy holdagi 5 β ,6 β -epoksi-20 α ,24 β ,25 α -trigidrosi-1,3-dioksovita-2-yenolid ekanligi aniqlandi va isbotlandi.

***Dipsacus azureus* o‘simligidan ajratib olingan birikmalar**

D. azureus n-butanolli fraksiyasidan kimyoviy jihatdan tadqiq qilish natijasida tuzilishi ilgaridan ma‘lum bo‘lgan metil- β -D-glykopyranozid (**8**), ursol kislota (**9**), oleanol kislota (**10**), loganin (**11**), severozid (**12**) lar ajratib olindi (4-rasm.) Ularning kimyoviy tuzilishi spektroskopiya ma‘lumotlariga ko‘ra aniqlandi va isbotlandi.



4-Rasm. *Dipsacus azureus* o‘simligidan ajratib olingan moddalarning kimyoviy tuzilishlari

4-Jadval

***Dipsacus azureus* o‘simligidan ajratilgan birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari**

№	Modda nomi	Brutto formulasi, mg	Suyuq. h., °C	Unum., %
1	Metil- β -D-glykopyranozid, (8)	C ₇ H ₁₄ O ₆ (20 mg)	166-168	0.002
2	Ursol kislota (9),	C ₃₀ H ₄₈ O ₃ (12 mg)	283-285	0.0012
3	Oleanol kislota (10)	C ₃₀ H ₄₈ O ₃ (16 mg)	308-310	0.0016
4	Loganin (11),	C ₁₇ H ₂₆ O ₁₀ (16 mg)	209-211	0.0016
5	Severozid (12)	C ₁₆ H ₂₂ O ₉ (15 mg)		0.0015

***Dipsacus azureus* o‘simligining lipidlari**

*D. azureus*ning yer ustki qismidan qutbsiz (NL) va qutbli lipidlar (QL) ajratib olindi. Qutbsiz lipidlar tarkibida 18 ta va qutbli lipidlar tarkibida 17 ta yuqori yog‘ kislotalari mavjud ekanligi aniqlandi.

16:0 (22,56-27,44%) va to‘yinmagan 18:2 ω 6-linolein (15,13-18,80%) va 18:3- α -linolein (24,51-31,45%) kislotaning miqdori sezilarli darajada yuqori ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Bundan tashqari 20:4n3 kislota NLda ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar (18:2; 18:3; 20:4) miqdori 47,17%, QL da esa (18:2; 18:3; 20:2) - 44,13% ni tashkil etdi. Shuni ta‘kidlash kerakki, *D. azureus* ning yer ustki qismidagi yog‘lar to‘plamining xususiyati NL va QL kislotalarida C atomining 22 dan 24 gacha bo‘lgan yuqori molekulyar kislotalar ekanligi aniqlandi.

S. officinalis va *S. griffithiana* o‘simliklari efir moylarining kimyoviy tarkibi


Saponaria turkumi o‘simliklari o‘ziga xos xushbo‘y hidga ega. O‘zbekiston florasida o‘svuchi bu turkumga mansub o‘simliklar efir moylarining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari hali o‘rganilmagan.

S.officinalis o‘simligi efir moyi tarkibida 38 ta komponent identifikatsiya qilindi. Ushbu komponentlar umumiy efir moyining 92.5 % ni tashkil etdi. Efir moyi tarkibida spirtlar (67.0%), aldegidlar va ketonlar (19.2%) miqdori ko‘p ekanligi aniqlandi. Seskviterpen va oksidlangan seskviterpenlarning miqdori mos ravishda 1.1 va 0.7% ni tashkil qildi. Efir moyining asosiy tarkibiy qismlarini dekanal (1.1%), 2-furanmetanol (1.3%), benzil spirt (1.5%), nonanal (2.4%), fenilasetonitril (2.5%), fenilasetaldegid (10.1%), shuningdek aniqlanmagan birikma (62.3%) tashkil qildi.

S.griffithiana o‘simligi efir moyi tarkibida 32 ta komponent identifikatsiya qilindi. Ushbu komponentlar umumiy efir moyining 97.2 % ni tashkil etadi. Ushbu o‘simlik efir moyining tarkibida ham spirtlar (86.4%), aldegidlar va ketonlar (7.7%) sezilarli darajada ko‘p ekanligi aniqlandi. Asosiy komponentlar 1-geksanol (1.1%), 2-geksenol (1.1%), (*E*)-3-geksenil asetat (2.0%), (*Z*)-3-geksen-1-ol (14.6%), fenilasetaldegid (3.9%) va aniqlanmagan birikma (67.9%) tashkil qiladi.

Ikkala namunadagi noma‘lum birikmlarning (62.3 va 67.9%) kimyoviy tuzilishini aniqlash maqsadida, namunalar YaMR spektroskopiyasi usuli yordamida o‘rganildi.

YaMR spektroskopiya ma‘lumotlarini tahlil qilish natijasida, aniqlanmagan komponentning tuzilishi **1-(2-furil) etanol (13)** ekanligi tasdiqlandi. Ushbu birikma gaz xromatografiyasi-mass-spektrometriyaning elektron kutubxonasiga kiritilmagan va adabiyotlarda uning ushlab turish indeksi (RI) qiymatlari topilmadi. Shunday qilib, birinchi marta qutbli kolonka uchun **1-(2-furil) etanolning (13)** ushlab turish indeksi qiymati (1570) aniqlandi.



13

Dissertatsiya ishining “**Tajriba qism**” deb nomlangan **uchinchi bobida** xromatografik usullar, o‘rganilgan o‘simliklardan ajratib olingan ekstraktlar hamda yangi individual moddalar va ma‘lum birikmalarning tuzilishlarini tasdiqlovchi spektral (UB, IQ, 1D va 2D YaMR spektroskopiya, mass-spektrometriya) ma‘lumotlari keltirilgan.

Bundan tashqari, ushbu bobda o‘simliklardan ajratib olingan ekstraktlar hamda individual moddalarning bakteriya va zamburug‘larga qarshi faolligi, sitotoksik faolligi, oshqozon yarasiga qarshi faolligi, gipoglimik va gipoxolesterinemik faolliklari usullari keltirilgan.

***Saponaria* va *Dipsacus* o'simlik turlari komponentlari (ekstrakt, efir moylari va individual moddalari) ning biologik faolliklari**

